



✓ **Volume 26**

✓ **Issue 7**

✓ **May 2025**

MODERN EDUCATION AND DEVELOPMENT



USTOZLAR UCHUN MCHJ, PEDAGOGS TAHRIRIYATI

**Modern education
and development.
It will be published from 2025.
It comes out once a month.**

1 (12) – 2025

**Современное образование
и развитие**

**Издаётся с 2025 года
Выходит раз в месяц**

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBGA QADRIYATLI YONDASHUV
KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO**

Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Telefon: +998917793882

munisxonernazarova21@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim-tarbiya jarayonining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri *Bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirish masalasi, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyatga munosabatni shakllantirishda ularning kasbga nisbatan qadriyatli yondashuvini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega ekanligi shu sababli bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish muammosi pedagogik nazariya va amaliyotda dolzarb masala sifatida namoyon bo'layotganligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, oliy ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, talaba, globallashuv jarayoni, tarbiya, jamoatchilik, insonparvarlik, qadriyat, innovation yondashuv.*

Annotation: *"This article discusses one of the pressing tasks facing the educational and upbringing process — the issue of developing a value-based approach to the profession among future teachers. It emphasizes the importance of fostering a value-based attitude toward professional activity in future teachers. Therefore, the development of value-based professional orientation skills in future teachers is becoming an urgent issue in pedagogical theory and practice."*

Keywords: *education, higher education, teacher, pupil, university student, globalization process, upbringing, public involvement, humanism, values, innovative approach*

I. Kirish:

Jamiyat taraqqiyotida ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Ta'limning asosiy maqsadi bilimli, ma'rifatli, faol fuqarolarni tarbiyalashdir. Bu jarayonda o'qituvchi



shaxsi markaziy o'rinda turadi. Zero, o'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki tarbiyachi, ma'naviy rahnamodir. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ularda nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar, balki kasbga nisbatan to'g'ri va qadriyatli munosabatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi globallashuv va axborot asrida ta'lim sohasi jadal o'zgarmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim mazmunining yangilanishi, insonparvarlik tamoyillari ta'lim jarayonida ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablarni ham oshirmoqda. Bunday sharoitda bo'lajak o'qituvchining kasbga nisbatan shaxsiy munosabati, professional qadriyatlarga sodiqligi, yetuk pedagogik madaniyatga ega bo'lishi muhimdir.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogikada dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu maqolada mazkur muammoning pedagogik asoslari, uni hal etishdagi samarali yondashuvlar va amaliy tavsiyalar yoritiladi.

II. Asosiy qism

Kasbga qadriyatli yondashuv — bu insonning o'z faoliyatiga, uning mazmuni va ahamiyatiga nisbatan ongli, mas'uliyatli, axloqiy qarashlar asosida yondashuvidir. Ayniqsa, pedagoglik kasbida bunday yondashuv o'ta muhim, chunki o'qituvchi faqat bilim emas, qadriyatlarni ham ulashuvchi shaxsdir. Uning faoliyati, shaxsiy fazilatlar, insoniylik tamoyillariga sodiqligi – barchasi o'quvchilarga namuna bo'lib xizmat qiladi.

Kasbga qadriyatli yondashuv tushunchasi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- kasbga muhabbat va sadoqat;
- insonparvarlik va adolat tamoyillariga amal qilish;
- kasbiy burchga mas'uliyat bilan yondashish;
- doimiy o'z ustida ishlash va rivojlanish istagi;
- boshqalarga (o'quvchi, hamkasb, jamiyat) hurmat bilan munosabatda bo'lish.



Bo'lajak o'qituvchida ana shu xislatlar va munosabatlarni shakllantirish orqali uning kasbiy qadriyatlar asosida faoliyat yuritishi ta'minlanadi. Bu esa, uzoq muddatli pedagogik samaradorlikni kafolatlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirish tizimli va maqsadli talim-tarbiya faoliyatini talab etadi. Bu jarayonda shubxasiz oliy ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi. Bizni fikrimizcha o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki kasbiy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar, shaxsiy pozisiyani shakllantirishga ham yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

- Ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish: ya'ni o'qituvchilarni tayyorlashda faqat fanga oid bilimlar emas, balki pedagogik etika, kasbiy madaniyat, insoniylik va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq mavzular ham keng qamrab olinishi kerak.

- Tarbiyaviy muhitni shakllantirish: Oliy ta'lim muassasasida demokratik, ochiq, insoniy munosabatlar ustuvor bo'lgan muhit bo'lishi kerak. Bunday muhit talabalarda axloqiy pozisiya va kasbiy burch hissini rivojlantiradi.

- Namuna orqali o'rgatish: O'qituvchi-ustozlar o'z shaxsiy namunasi bilan talabalarda kasbiy qadriyatlarga munosabatni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Shunga ko'ra, pedagogik faoliyatdagi insoniylik, adolat, sadoqat kabi xislatlarni ustozlar o'z amaliyotida namoyon etishi kerak.

- Amaliy mashg'ulotlar va pedagogik tajriba: Bo'lajak o'qituvchilarni maktab muhitiga yaqinlashtiruvchi amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot va master-klasslar orqali ularda haqiqiy kasbiy muhitga nisbatan munosabat, mas'uliyat va shaxsiy qadriyatlar shakllanadi.

- Fikrlashni, mulohaza qilishni rag'batlantirish: Muhokama, debatlar, refleksiv yozishmalar orqali talabalarning o'z faoliyatiga tanqidiy va axloqiy nuqtai nazardan yondashishiga imkoniyat yaratiladi.



Shu shart-sharoitlar uyg'un tarzda tashkil etilganda, bo'lajak o'qituvchilar nafaqat bilimli mutaxassis, balki kasbiga sidqidildan yondashuvchi inson sifatida shakllanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirish uchun an'anaviy usullar bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovasion yondashuvlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki innovasion yondashuvlar shaxsiylashtirilgan o'qitish, talabaning faol ishtirokiga asoslangan ta'lim va refleksiv tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi.

Quyida ushbu jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy pedagogik texnologiyalar va usullarni keltirib o'tamiz:

- Qiymatga yo'naltirilgan ta'lim (value-oriented education): Ushbu yondashuv talabalarni faqat bilim egasi sifatida emas, balki inson sifatida shakllantirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning axloqiy, estetik, ma'naviy rivojiga xizmat qiladi. Bu orqali talabalarda kasbiy burch, mas'uliyat, mehr-oqibat va sadoqat xislari shakllanadi.

- Faol ta'lim usullari (muloqotli o'qitish, keys-stadi, klaster, debatlar): Bunday usullar talabalarning mustaqil fikr yuritish, vaziyatli qaror qabul qilish, axloqiy muammolarni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Jumladan, kasbiy dilemmalarni muhokama qilish orqali talabalar o'z munosabatlarini shakllantiradi.

- Refleksiv o'qitish texnologiyalari: Refleksiya orqali talabalar o'z bilimlari va xatti-harakatlarini baholaydi, to'g'ri yo'nalishni aniqlaydi, o'z-o'zini anglash jarayonini boshidan kechiradi. Bu esa o'z navbatida, kasbiy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishga xizmat qiladi.

- Interaktiv treninglar va rolly o'yinlar: O'qituvchi rolini bajarish, simulyasiya qilish va hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilish bo'lajak pedagoglarning hissiy empatiyasini, mas'uliyatini, muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

- Sifrovizatsiya va onlayn ta'lim platformalari: Zamonaviy texnologiyalar (muvofig onlayn kurslar, video-leksiyalar, virtual amaliy mashg'ulotlar) yordamida talabalarga turli ta'lim manbalari orqali individual va axloqiy qarorlar qabul qilish imkoni yaratiladi.



Shu tariqa, innovasion yondashuvlar faqat bilim berish emas, balki talabalarning shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bu esa ularning kasbiy faoliyatida to‘laonli shaxs sifatida faoliyat yurishishini ta’minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuvni shakllantirish jarayonida muayyan muammolar mavjud bo‘lib, ular ta’lim mazmuni, metodik yondashuv, tarbiyaviy muhit va amaliy faoliyatdagi kamchiliklar bilan bog‘liqdir. Bu muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Mavjud asosiy muammolar esa quyidagilardan iborat:

- Nazariy bilim va amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzilish: Ko‘p hollarda ta’lim jarayonida nazariy ma’lumotlar ustuvor bo‘lib, talabalar amaliy tajribadan chetda qolmoqda. Bu esa kasbga shaxsan daxldorlik va mas’uliyat tuyg‘usining shakllanishini qiyinlashtiradi.

- Qadriyatli yondashuvga doir ta’lim mazmunining yetarli emasligi: O‘qituvchilarni tayyorlashda pedagogik fanlarda kasbiy qadriyatlar, etika, insoniylik mavzulariga yetarlicha e’tibor qaratilmayotgani kuzatiladi.

- Tarbiyaviy muhitning zaifligi: Oliy ta’lim muassasalarida aksar hollarda faqat akademik natijalarga e’tibor qaratiladi. Bu esa talabalarning shaxsiy rivoji, ma’naviy-axloqiy kamolotini ikkinchi darajali masalaga aylantirib qo‘yadi.

- O‘qituvchi-ustozlarning shaxsiy namuna bo‘lish borasidagi kamchiliklari: Talabalar o‘z ustozlaridan kasbiy va axloqiy nuqtai nazardan namuna ololmagan hollarda, ularda ham befarqlik va formal yondashuv shakllanadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘llar taklif etiladi:

1. Ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va boyitish: Pedagogika, psixologiya, axloqshunoslik kabi fanlar mazmuniga kasbiy qadriyatlar, shaxsiy mas’uliyat, insonparvarlik mavzularini **yanada chuqurroq integratsiya qilish.**

2. Amaliy mashg‘ulotlar va ta’lim amaliyotini kengaytirish: Pedagogik amaliyotning mazmunli va haqiqiy maktab muhitida olib borilishi talabalarda real faoliyatga munosabat shakllantiradi.



3. Ma'naviy-axloqiy muhitni kuchaytirish: Ustoz va talabalar o'rtasida samimiy, ishonchli, axloqiy munosabatlarga asoslangan muhitni shakllantirish orqali shaxsiy tarbiyaga yordam berish.

4. O'qituvchi-ustozlar uchun doimiy kasbiy va axloqiy qayta tayyorlash kurslarini joriy etish: Bu ularning pedagogik faoliyatida shaxsiy namuna ko'rsatish qobiliyatini oshiradi.

Shu orqali, kasbiy qadriyatlarga ega, mas'uliyatli va jamiyat oldida o'z burchini his qiladigan o'qituvchilarni tayyorlash imkoni yaratiladi.

III. Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish — bu faqat ta'lim sifati muammosi emas, balki jamiyatda yetuk, mas'uliyatli, insonparvar shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq keng qamrovli pedagogik masaladir. Ushbu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, shaxsiy tarbiya, amaliy mashg'ulotlar va namunali muhit muhim o'rin tutadi. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy muhit, ustozlarning shaxsiy namunasi va innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish orqali bu muammoni hal etish mumkin. Umumiy holatda, uzluksiz pedagogik jarayonning muhim xususiyatlaridan yana biri o'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar, nazariy bilim va tushunchalar, qoidalar tizimi o'quv jarayoni faoliyatining asosini tashkil etadi.

Quyida mazkur yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy takliflar keltirilgan:

1. O'qituvchilar tayyorlovchi ta'lim dasturlariga "Kasbiy qadriyatlar"ga oid alohida fan yoki modul kiritilishi;

2. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik amaliyotini mazmunan boyitish va uni nafaqat o'qitish, balki tarbiyaviy ishlar bilan bog'lash;

3. Talabalarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan interaktiv metodlar (debat, mulohaza, refleksiya)ni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish;

4. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, shaxsiy o'sishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish;



5. Ustoz-o'qituvchilar uchun kasbiy qadriyatlarga oid malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish orqali, biz nafaqat kasbiy yetuk, balki insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, mas'uliyatli va haqiqiy tarbiyachi pedagoglarni tayyorlash imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa ta'lim tizimining umumiy sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova, M. (2020). Pedagogik ta'lim va qiymatlar shakllanishining zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
2. Jo'rayev, S. (2018). Ta'lim tizimida insoniy qadriyatlar va ularning ahamiyati. Toshkent: Navoiy universiteti nashri.
3. Gulyamova, L. (2021). Kasbiy axloq va pedagogik qadriyatlar: nazariy asoslar va amaliy yo'nalishlar. Ta'lim va hayot jurnali.
4. Kanimetov, A. (2019). Pedagogik texnologiyalar va innovasion metodlar. Toshkent: Oliy ta'lim nashri.
5. Murodova, R. (2022). Shaxsiy tarbiya va pedagogik muammolar. Toshkent: Zarafshon nashri.
6. Ernazarova M.J. (2024). Bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish. "Mug'allim ham uzluksiz bilimdendiru" jurnali



**O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKILLANTIRISHDA PSIXIK JARAYONLARNING O'QUVCHI ONGIGA
TA'SIRI**

Omonova Nafisa

Farg'ona davlat universiteti

Sport turlar fakulteti

sport psixologiya yo'nalishi

4-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda psixik jarayonlarning o'quvchi ongiga ta'sirini o'rganadi. Maqolada psixik jarayonlar, xususan, idrok, xotira, tafakkur va motivatsiya kabi omillar sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini shakllantirishda qanday rol o'ynashi tahlil qilinadi. O'quvchilarning ongiga ta'sir qiluvchi psixologik mexanizmlar, ta'lim jarayonidagi tarbiyaviy usullar va ularning samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda ijtimoiy muhit, oila va media omillarining ta'siri muhokama qilinadi. Maqola ta'lim muassasalari va pedagoglar uchun sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda psixologik yondashuvlardan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Sog'lom turmush tarsi, psixik jarayonlar, o'quvchi ongi, motivatsiya, idrok, tafakkur, ta'lim jarayoni, ijtimoiy muhit, pedagogik psixologiya

Аннотация: Данная статья посвящена изучению влияния психических процессов на сознание учащихся в процессе формирования здорового образа жизни. В статье анализируется роль психических процессов, таких как восприятие, память, мышление и мотивация, в формировании ценностей здорового образа жизни. Рассматриваются психологические механизмы, влияющие на сознание учащихся, воспитательные методы в образовательном процессе и их эффективность. Также обсуждается воздействие социальной среды, семьи и медиа на пропаганду здорового образа жизни. Статья



38.	THE USE OF SOMATIC PHRASES IN NOVEL “BYGONE DAYS”	Rajabboeva Dinora	194-197
39.	TA'LIM MUASSASASIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O`ZIGA XOS AFZALLIKLARI VA AXAMIYATI	Karakulov Abdunazar Nurmamatovich, Murodova Dilshoda Murodjon qizi	198-202
40.	УЧАСТИЕ ГОСУДАРСТВА В МЕЖДУНАРОЖНЫХ ЧАСТНОПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ: ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО СТАТУСА И НОРМЫ УЗБЕКСКОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ОБ ИММУНИТЕТЕ	Исломшиков Жавдат Гайратович	203-210
41.	QON BOSIMI PASAYISHI (GIPOTONIYA) — SABABLARI, ALOMATLARI, DAVOLASH, OLDINI OLISH	Abdullayeva Zilola Gafurovna	211-214
42.	MAKTABGACHA YOSH BOLALARDA SHAXSLARARO MUNOSABAT PSIXODIAGNOSTIKASI	Poyonova Guldona Yusuf qizi, Normurodova Mavjuda Xurshid qizi	215-220
43.	ISHLAB CHIQARISH XAVFSIZLIGI BO'YICHA SIMULYATSIYA VA TRENING DASTURLARINING SAMARADORLIGI	Avazbek Usmonov Samandar o'g'li	221-227
44.	O'ZBEK TILINING DAVLAT MIQYOSIDAGI AHAMIYATI	Ikramova Moxira Mirzorohimovna	228-230
45.	JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA MAHKUMLARNI OZODLIKKA TAYYORLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	Abdukarimov Saidislom G'ayrat o'g'li	231-234
46.	O'ZBEKISTONDA DUTOR IJROCHILIGI	ABSATOVA MUNISA ABDUSALOM QIZI, M.Xo'jageldiyeva	235-240